

ABDULLA QAHHORNING “BEMOR” HIKOYASINING BADIY XUSUSIYATI

Hamrayev Ilg‘or Aktamovich

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Stajyor o‘qituvchisi.

Qo‘chqarova Gulruh Nizomiddin Qizi

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich 103-guruhi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15491993>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Davlat yozuvchisi, adabiyot xazinasida bo‘lmish Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi oldingi davr va hozirgi davr talqini. Shu bilan birga asardagi bosh qahramon va boshqa salbiy obrazlar tasvirlangan.

Kalit so‘zlar: “Osmon yiroq, yer qattiq”, “Yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi”, davr, tabib, baxshi, chilyosin.

Аннотация. В данной статье рассматривается рассказ «Бемор» выдающегося узбекского писателя, классика литературы Абдуллы Каххара. Проанализированы различия между прошлым и настоящим временем, отражённые в произведении. Также уделено внимание характеристике главного героя и отрицательных персонажей.

Ключевые слова: «Небо далеко, земля твёрдая», «Толстая тянется, тонкая рвётся», эпоха, целитель, бахши, чилиосин.

Abstract. This article analyzes the short story “The Patient” by Abdulla Qahhor, a renowned Uzbek writer and a prominent figure in the nation's literary heritage. It explores the contrast between past and present interpretations of the story, focusing on the main character as well as the depiction of negative figures in the narrative.

Keywords: “Sky is far, the earth is hard”, “The thick stretches, the thin breaks”, era, healer, baxshi, chilyosin.

Kirish.

O‘zbek milliy nasrining zabardast vakillaridan biri yozuvchi Abdulla Qahhor 1907-yilning 17-sentabrida Qo‘qon shahridan uncha uzoq bo‘lmagan Asht qishlog‘ida dunyoga kelgan. Uning otasi usta Abduqahhor temirchilik bilan shug‘ullanardi. Ustaning oilasida garchi juda ko‘p farzand tug‘ilgan bo‘lsada ular orasidan faqat Abdullqjongina yashab qolgan. Bolaligi Qo‘qon va uning atrofidagi qishloqlarda o‘tdi. Oilasi Qo‘qonga ko‘chib kelgach, “Istiqlol” nomli Sho‘ro maktabiga o‘qishga kiradi, undan keyin internat “Kommuna”, “Namuna” maktablarida, so‘ng bilim yurtida tahsil ko‘radi. Abdulla Qahhorning “Oy kuyganda” ilk hajviy she‘ri “Mushtum” jurnalida Norin shilpiq taxallusi ostida bosildi(1924) undan so‘ng “Qishloq hukim ostida” nomli qissasi 1932-yil “Sarob” 1934-yil 1935-1939-yillar oralig‘ida uchta “Hikoyalar to‘plami”. 1937-yil ning oxirida esa “Sarob” romani o‘quvchilarga kitob shaklida taqdim etiladi. 1951-yilda “Qo‘shchinor chiroqlari”, “Shohi so‘zana” 1951-yil, “Og‘riq tishlar” 1954-yil “Tobutdan tovish” 1962-yil “Ayajonlarim” 1967-yil singari komediyalari o‘z davri tomoshabinlarining sevimli asarlariga aylangan edi. 1967-yil shuningdek, adibning, “Sinchalak”, “O‘tmishdan ertaklar”, “Muhabbat”, “Zilzila” tugallanmagan qissalari mavjud shuningdek “Bemor” hikoyasi.

Muhokama qismi:

Dastlab asar yozilgan yilga e'tibor qaratadigan bo'lsak "Bemor" hikoyasi 1936-yil yozilgan. Ushbu davrda mamlakatimiz SSSR davlatining qaramog'ida edi. Insonlar och-nahor, bir burda nonga zor bo'lganlar. Shu sababli ham insonlar pul topish ilinjida o'g'irlik firibgarlik kabi illatlarni o'zlariga kasb qilib olgan edi.

Sotiboldining xotini og'rib qoldi. Sotiboldi kasalni o'qitdi-bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Tabib qon oldi. Betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi. Baxshi o'qidi. Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq suyib qonladi. Ushbu parchada bir amallab "tabib" nomini olgan kimsa, yuqorida keltirilganidek ayolning qanday kasal, nima bilan og'riyotganini bilmasdan turib o'zi tashxis chiqarib undan qon oldi. Buning oqibatida esa ayolning ahvoli battar yomonlashdi, "ko'zi tinib" boshi aylanadigan bo'lib qoldi. Hatto o'zi ham kim ekanligini bilmaydigan allaqanday bir xotin kelib og'ir ahvolda yotgan ayolni kelib uni savalaydi. Bu g'irt axmoqqarchilik. Ulardan so'ng xonadonga baxshi keladi. U xotinni yoniga o'tib bir narsalar o'qiydi, lekin u o'qiyotgan o'qigan narsalar bemorning ahvolini zora yaxshilasa, unga yaxshilanadimi, yo'qmi uni zarracha bo'lsa ham qiziqtirmaydi.

Axir kasal xotinni kelib-kelib tolning xipchini bilan savalaydimi? Bu bemor uchun yordam bera oladimi. Hamma joyda ochlik hukum surayotgan bir paytda bemorning ahvoli hech kimni qiziqtirmaydi. Tovuuq so'yib qonini oqizish bilan ayolga tekkan dardning o'rtasida nima aloqa bor deb uylaysiz. Bularning qilayotgan ishlari hammasi soxta "tabiblar" ga bemorning o'lishi -yoki qolishining qizig'i yo'q, ular faqat pul uchun shunday rozilikka qo'l urgan edi. Holbuki, ular bunday "davolash usuli" ni birgina Sotiboldining xotiniga emas balki, butun o'sha atrofdagi yuzlab bechoralarga ham qilishgan. Baxshi esa kimning yoniga chaqirilsa ushanning yoniga borib o'zi yodlab olgan narsalarni o'qib, chiqib ketavergan. Korinib turibdiku xalqimiz shu darajada ong-u shuurini johillik bilan butunlay band qilib olgan.

Shaharda bitta doktorxona bor. Bu doktorxona to'g'risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda daraxtlar ichiga ko'milgan baland va chiroyli imorat shisha qabzali kulrang eshigida qo'ng'iroq tugmasi bor. Doktorxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so'mlik pul kelar edi.

Bundan kelib chiqib bu tun boshli shaharda birgina kasalxona bo'lishi. Bu ham o'sha 20-asrning dastlabki yillari Chor Rassiyasiga qaramligimizdan tibbiyot masalalarini hal qilishga deyarli e'tibor berilmas edi, chunki xalqimiz moliyaviy jihatdan juda qiynalishgan. Shuning uchun ham iqtisodiy nochorlik kishilar turmush darajasining tobora pasayib borishiga, aholi o'rtasida turli kasalliklar keng tarqalib, oddiy betoblik ortidan odamlar bevaqt hayotdan ko'z yumib ketishiga sabab bo'ldi.

Har bir davrda bo'lganidek aynan mana shu yillarda ham aholi o'rtasida tatabaqalanish keng avj olib, tibbiy xizmatdan faqatgina chor amaldorlar, harbiylar va mahalliy boylargina foydalana olar edi. Bunday sharoitda esa Sotiboldiga o'xshagan oddiy xalqning nochor odamlari kasalxonaga borib shifo topishni emas, balki doktorxona uchun 25 so'mlik pul topish ilinjida yurar edi. Shunday paytda Sotiboldining birgina najoti xo'jayini Abdug'aniboy edi. Lekin u yordam berish urniga qandaydir - Devonayi Bahovddinga hech narsa ko'tardingmi?

G'avsula'zamga-chi? deb yordam qo'lini cho'zishdan bosh tortadi.

O'zi esa omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o'ladigan ahvolga kelgan vaqtda shahardagi kasalxonani ham nazariga ilmay markaziy shaharga ya'ni Simga borib davolanib kelishga pul topgan bu bag'itosh kimsa xizmatkorining ayoli yosh o'lib ketishi, norasida bir farzand yetim qolib ona mehriga zor bo'lib o'sishi mumkinligini bila turib zarracha yordam ko'rsatishga yaramadi. Axir Abdug'aniboyni boy qilgan xohlagandek maishat qilishi, betob bo'lganda istagan joyiga borib davolanib kelishi uchun yetarlicha mablag' bilan ta'minlagan Sotiboldi va unga o'xshaganlarning og'ir va mashaqatli mehnati emasmidi, Nahotki shu bir qiymatga arzimaydigan pul inson hayotidan azizroq bo'lsa?

E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, o'sha davrda butun boshli jamiyat bor, bitta bo'lsa ham doktorxona bor, tabib bor, baxshi bor, qo'lida harom pullar o'ynagan boylar va amaldorlar bor qanday mehnat bo'lsa, qilishga tayyor Sotiboldi bor lekin bularning hech birida bemor uchun najot yo'q. Hikoya davomida na Sotiboldining na ayolining qarindosh-urug'lari qo'ni-qo'shnilari haqida so'z yuritiladi. Bu qarindosh yoki qo'shnilar yo'qligidan emas, balki yordam beruvchilarning yo'qligidan dalolatdir.

Chunki bunday og'ir zamonda birovning birov bilan ishi yo'q qarindoshlar narida tursin hatto farzand otasini tanimaydigan darajada hamma o'z kunini qanday kechirishni o'ylaydi. Shu boisdan ham qashshoqlikning botqog'iga botib qolgan shunday ayanchli nochor muhitda tashqaridan bosalarning ovozi emas, balki gadoning sadoqat so'rab boqirgan tovushi eshitiladi.

Hikoyaning mazmun mohiyati ta'sir kuchi holi bu bilan ham tugamaydi. O'limi yaqinlashib qolgan ayoli uchun biror najot topa olmagan Sotiboldi qo'shni kampirning maslahati bilan endi to'rt yoshli qizchasining saharda qilgan duosiga umidvor bo'ladi. "Bemorning kunglida armon bo'lmasin" deb "Chilyosin" ham qildirishga to'g'ri keladi. So'nggi damda qilinayotgan ishlarning barchasi bemorning o'lib qolmasligi uchun edi. "Chilyosin"dan bemor tetik chiqqanday bo'ldi.

Shu kecha katta ko'zini ochib qizchasini yoniga tortdi pichirladi:

-Xudo qizimizning saharlari qilgan duosuni dargohiga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimizni saharlab uyg'otmang deb ham aytti.

Asardagi qahramonlar ruhi yotiga to'xtaladigan bo'lsak hikoyaning bosh qahramoni Sotiboldini kambag'alligi va chorasizligi tufayli asarning boshidan yakunigacha juda tushkun ahvolda ko'ramiz. Og'ir kasallikdan aziyat chekayotgan ayolining holatini ilojisiz kuzatayotganligi uni tuzatish uchun qo'lida bor imkoniyatidan foydalansa-da umiryo'ldoshini bu azoblardan qutqarishga ojiz qolganligi sababli ham bu obrazni o'sha davrdagi imkoniyatlari cheklangan, o'z haqini talab qila olmaydigan, nochorlikning changalida ezilayotgan insonlarning tipik vakili deya olishimiz mumkin. Hikoyadagi yana bir obraz -Abdug'aniboy orqali insoniylikni bir chetga surib qo'yib oddiy insonlarga tepadan qaraydigan, odamgarchilik, rahm, insof, kabi insoniy xislatlarini bir pulga sotadigan ma'niviy qashshoq kimsa sifatida tasvirlangan. Bundan tashqari asardagi "tabib" "baxshi" bemorni xipchin bilan savalagan ayol kabi obrazlar pul uchun hech narsadan tortmaydigan, tuban va razil kimsalarning umumlashma variantidir. Hikoyada Bemor faqat Sotiboldining xotini emas, balki butun jamiyat bemor -xasta, najotga zor, tuzalishga muhtoj, loqayd, ilimsiz, ma'noviy tubanlik.

Asar muallifi bu hikoya orqali umidsizlik yoki tushkunlikni targ'ib etmaydi, aksincha, u inson ruhiyatining kuchi va chidamliligini, shu bilan birga, qiyinchiliklarga duch kelganda shaxslarning maqsad va chora yo'lini topish qobiliyati qay darajada yuksalishi mumkinligini namoyish etadi.

Abdulla Qahhorning mushohadali hayot haqiqatlarini o'zining kichik jussasida mujassam qilgan bu qisqa hikoyasi bugungi kunda ham o'z salmog'i va o'rnini yo'qotmay kelayotganining asosiy sabablaridan biri shuki, undan olinadigan xulosa hozirda ham bir qancha insoniy tuyg'ulardan yiroqlashib borayotgan yangi davr kishilari uchun ibrat vazifasini o'tayotganligidir.

XULOSA

Ushbu maqolada xulosa qiladigan bo'lsak, Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasi oddiy bir voqelik orqali katta hayotiy haqiqatni ochib beradi. Asarda muallif bir shifokorning beparvoligi sabab oddiy bir bemorning taqdiriga qanday salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu orqali u faqat tibbiyot sohasi emas, umuman har qanday kasb egalari o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishi lozimligini uqtiradi.

Hikoya bosh qahramonining ayanchli holati orqali o'quvchida achinish, g'azab va o'ziga savol berish hissi uyq'otadi: "Agar men shu vaziyatda bo'lsam, qanday yo'l tutgan bo'lardim?"

Bu esa asarning tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyatini oshiradi. Yozuvchi o'zining teran kuzatuvchanligi, nozik psixologik tahlillari orqali inson qalbini tahlil qiladi, jamiyatdagi muhim muammolardan birini ko'taradi – bu esa uni o'qiladigan va o'ylantiradigan asarga aylantiradi.

"Bemor" hikoyasi orqali muallif nafaqat shifokorlar, balki har bir odam o'z zimmasidagi vazifani vijdonan bajarishi kerakligini eslatadi.

Chunki har bir mas'uliyatsizlik ortida inson taqdiri, hayoti turishi mumkin. Shunday qilib, "Bemor" nafaqat adabiy asar sifatida, balki hayotiy saboq, ogohlantiruvchi ibrat sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Bu hikoya bizni insoniylik, mehr-shafqat, mas'uliyat va halollik haqida yana bir bor chuqur o'ylashga chorlaydi.

REFERENCES

1. Toshkent.Adabiyot uchqunlari. 2019. 53-55-betlar.
2. 6-sinf Adabiyoti darsligi 1-qism (2017) Toshkent Ma'naviyat (111-117-betlat)
3. "Anor" qissa va hikoyalar to'plami, A.Qahhor, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-manbaa uyi.Toshkent 2012-yil.
4. Adabiyot darsligi "Ma'naviyat", (108-118-betlar).